



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
VAZIRLAR MAHKAMASI  
DAVLAT TILINI  
RIVOJLANTIRISH  
DEPARTAMENTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI  
UNIVERSITETI

AXBOROT XATI

ToshDO'TAU,  
Toshkent shahri,  
Yakkasaroy tumani,  
Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Murojaat uchun telefonlar:  
+998914040620  
+998 88 183 20 02  
+998 97 122 33 77

e-mail: milliykorpus@gmail.com

## “O'ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI: MUAMMO VA VAZIFALAR” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

Sizni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi bilan hamkorlikda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-yil 31-may kuni bo'lib o'tadigan “O'zbek tilining milliy korpusi: muammo va vazifalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaga taklif etamiz.

Konferensiya quyidagi sho'balarda ish olib boradi:

1. O'zbek tilining Milliy korpusi: natijalar, muammolar, vazifalar.
2. O'zbek tilining Milliy korpusini yaratish masalalari.
3. Tabiiy tilga avtomatik ishlov berish muammolari.
4. O'zbek tilining formal grammatikasini yaratish muammolari.
5. Til ta'limida korpuslardan foydalanish istiqbollari.

Mazkur konferensiyada ishtirok etishni istagan olimlar, professor-o'qituvchilar, doktorant, tadqiqotchi va magistrantlar ilmiy maqolalarini yuqorida ko'rsatilgan sho'balar yo'nalishlari bo'yicha o'zbek, rus, ingлиз tillarida taqdim etishlari mumkin.

### Maqolani tayyorlashga qo'yiladigan talablar:

Maqola hajmi 5 betdan kam bo'lmasligi lozim. Maqola matni doc. formatida, 1 intervalda, o'ng tomondan 15 mm, chap tomondan 30 mm, yuqori va pastdan 20 mm hoshiya qoldirilib, Times New Roman 14 kegl shriftda tayyorlanadi; maqola nomi 12 so'zdan ortmasligi; maqola nomi maqola shakllantirilgan til va ingliz tiliga tarjima qilingan holatda berilishi; maqola annotatsiyasi maqola matnidan oldin, ingliz tilida berilishi lozim; annotatsiyadan so'ng kamida 5-7 ta kalit so'z keltirilishi, maqola matni kalit so'zlardan keyin ikki interval pastdan berilishi kerak.

*Muallif haqida ma'lumotlar:* Maqola sarlavhasidan 1 interval pastda muallifning familiyasi, ismi, sharifi, ularning cheti – o'ng tomonida (\*) havolasi ostida muallifning ilmiy darajasi, unvoni, tashkilot nomi va elektron manzili ko'rsatilishi lozim.

*Havola va foydalanilgan adabiyotlarning berilish tartibi:* Manba havolasi to'rtburchak qavs ichida, manba muallifi familiyasi, nashr yili va sahifasi ko'rsatilgan tartibda beriladi. Namuna: [Valixo'jaev, 2002: 96]. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yuqorida qayd etilgan tartibda matnning so'ngida beriladi.

*Eslatma:* To'plamga kiritiladigan materiallar mazmuni va uning to'g'riliqiga mualliflar javobgar. Talabga javob bermaydigan materiallar qabul qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

**Anjumanga materiallar 2022-yilning 25-mayga qadar qabul qilinadi.**

Maqolalar milliykorpus@gmail.com elektron manzili orqali yuborilishi kerak.